



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARINING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'y'dinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiye'vich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibaye'vich, Ruzibaye'va Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH	182
Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	208
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI	213
Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	216
Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	220
Ashurova Nilufar Yuldosh qizi, Xurshidjon Tillayev Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH	225
Iskenderov Axmet Maksetbaevich, Irisaliyeva Kamola Otabekovna	
MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	228
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna	
HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE	233
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Komilov Sarvar Firdavs ugli	
O'ZBEK TILINING RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR DAVRIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	237
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Faruxov Shoxrux Tolibovich	
УЧЁТ ТРУДА И ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ АСПЕКТЫ	242
Махмуджанов Мухаммадали Максуджан угли, Абдурашидова Марина Сагатовна	
O'ZBEKISTONNING GLOBAL IQTISODIYOTDAGI ROLI	246
Xudoynazarov Murod Maxmudjanovich, Ramanberdiyev Umidbek Jamoladdin o'g'li	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА: АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ НИУ ВШЭ	249
Бозорова Фарангиз Шерзод кизи, Мусаев Озоджон	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	255
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Abduraxmonova Aqida Fayzulla qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI



Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Abduraxmonova Aqida Fayzulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali

Ekologik toza iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası dotsenti, PhD
ORCID: 0000-0003-4202-7159

Annotatsiya: Ushbu maqolada global raqamlashtirish jarayonlari sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va oshirishning konseptual asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi an'anaviy iqtisodiy modellarning raqamli transformatsiya talablariga moslashuvi hamda ushbu jarayonda "egizak o'tish" (Twin Transition) — raqamli va yashil iqtisodiyot integratsiyasining tutgan o'rni bilan izohlanadi. Maqolada milliy raqobatbardoshlikning zamonaviy drayverlari, jumladan, inson kapitalini raqamlashtirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va tranzaksion xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining mamlakat eksport salohiyatini oshirishdagi strategik ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro indekslardagi o'rnini mustahkamlash hamda raqobatbardosh raqamli ekotizimni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, milliy raqobatbardoshlik, konseptual asoslar, egizak o'tish, raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish, inson kapitali, tranzaksion xarajatlar.

Abstract: This article examines the conceptual foundations for ensuring and enhancing the competitiveness of the national economy in the context of global digitalization processes. The relevance of the study is determined by the adaptation of traditional economic models to the requirements of digital transformation, as well as by the role of the "Twin Transition" — the integration of digital and green economies. The article analyzes modern drivers of national competitiveness, including the digitalization of human capital, the development of innovative infrastructure, and mechanisms for optimizing transaction costs. In addition, the strategic importance of digital platforms and artificial intelligence technologies in increasing the country's export potential is substantiated. The study also proposes scientific and practical recommendations aimed at strengthening Uzbekistan's position in international rankings and forming a competitive digital ecosystem.

Key words: digital economy, national competitiveness, conceptual foundations, twin transition, digital transformation, innovative development, human capital, transaction costs.



Аннотация: В данной статье исследованы концептуальные основы обеспечения и повышения конкурентоспособности национальной экономики в условиях глобальных процессов цифровизации. Актуальность исследования определяется адаптацией традиционных экономических моделей к требованиям цифровой трансформации, а также значением концепции «двойного перехода» (Twin Transition) — интеграции цифровой и зелёной экономики. В статье проанализированы современные драйверы национальной конкурентоспособности, включая цифровизацию человеческого капитала, развитие инновационной инфраструктуры и механизмы оптимизации транзакционных издержек. Кроме того, обоснована стратегическая значимость цифровых платформ и технологий искусственного интеллекта в повышении экспортного потенциала страны. По итогам исследования предложены научно-практические рекомендации по укреплению позиций экономики Узбекистана в международных рейтингах и формированию конкурентоспособной цифровой экосистемы.

Ключевые слова: цифровая экономика, национальная конкурентоспособность, концептуальные основы, двойной переход, цифровая трансформация, инновационное развитие, человеческий капитал, транзакционные издержки.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti “Buyuk raqamli o'tish” davrini boshdan kechirmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) an'anaviy iqtisodiy raqobat omillari — xomashyo resurslari, arzon ishchi kuchi va geografik joylashuvning ustuvor ahamiyatini sezilarli darajada kamaytirdi. Jahon banki hamda UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so'nggi o'n yillikda 15,5 % gacha oshgan bo'lib, ushbu soha raqamlashtirilmagan tarmoqlarga nisbatan 2,5 baravar tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Mazkur sharoitda milliy raqobatbardoshlik tushunchasi ham konseptual jihatdan yangi mazmun kasb etmoqda. Endilikda u davlatning “ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiyot” (Data-driven economy)ni shakllantirish va samarali boshqarish salohiyati bilan belgilanmoqda.

“Egizak o'tish” (Twin Transition) konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy strategiyaning muhim poydevoriga aylanmoqda. Internet tarmog'idagi ilmiy tadqiqotlar hamda Yevropa Ittifoqi (European Commission)ning strategik hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda raqobatbardoshlik nafaqat texnologik rivojlanish, balki raqamli va yashil iqtisodiyot integratsiyasini nazarda tutuvchi “egizak o'tish” konsepsiyasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mazkur yondashuv raqamli transformatsiya jarayonlarini yashil iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirishni anglatadi. Jumladan, sun'iy intellekt (AI), narsalar interneti (IoT) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkorligini kuchaytirish hamda uglerod izini kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada mamlakatning global eksport bozorlaridagi, xususan ESG standartlari doirasidagi investitsion va iqtisodiy jozibadorligi yanada ortadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun raqamli iqtisodiyotga o'tish tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, institutsional samarasizlikni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq xalqaro ma'lumotlar bazalari hamda global indekslar — Global Competitiveness Index va Network Readiness Index ko'rsatkichlari tahlili raqamli infratuzilma rivojlanishi bilan inson kapitalining raqamli kompetensiyalari o'rtasida ma'lum nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga¹ muvofiq “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini izchil amalga oshirish jarayonida milliy raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslarini ilmiy jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion tadbirkorlik muhitini shakllantirish hamda ularni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — xalqaro tajriba va internet ma'lumotlar bazalarida aks etgan ilg'or amaliyotlarni o'rganish asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual modelini shakllantirishdan iborat. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi muhim drayver sifatidagi roli hamda milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv mexanizmlari batafsil yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning axborot bazasini shakllantirishda internet tarmoqlaridagi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Jumladan, Jahon banki (World Bank)ning raqamli rivojlanish va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlariga oid statistik ma'lumotlari, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU)ning axborot-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5030957>.



kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish indeksi (IDI) bo'yicha ko'rsatkichlari, BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning elektron tijorat hamda raqamli texnologiyalar bo'yicha hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining milliy iqtisodiyotdagi raqamlashtirish darajasiga oid rasmiy ma'lumotlari tadqiqotning asosiy axborot manbalari sifatida xizmat qildi.

Maqolani tayyorlash jarayonida iqtisodiy tahlilning bir qator zamonaviy ilmiy usullaridan foydalanildi. Xususan, qiyosiy tahlil (Comparative Analysis) usuli asosida rivojlangan mamlakatlar — Janubiy Koreya, Estoniya va Germaniyaning raqamli transformatsiya strategiyalari hamda ularning global raqobatbardoshlik indekslaridagi o'zni O'zbekiston tajribasi bilan o'zaro taqqoslandi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv asosida raqamli iqtisodiyot faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki inson kapitali, innovatsion infratuzilma va institutsional muhitning o'zaro uyg'unlashgan yaxlit tizimi sifatida tadqiq etildi. Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullaridan ham samarali foydalanildi. Jumladan, global iqtisodiy tendensiyalar va xalqaro tajribalar asosida umumiy nazariy xulosalar shakllantirilib, ular O'zbekiston milliy iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirildi.

Raqamli iqtisodiyot va milliy raqobatbardoshlik masalalari ko'plab xorijiy olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, Klaus Schwab To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli platformalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlariga aylanayotganini ta'kidlaydi. World Bank tadqiqotlarida esa raqamli infratuzilma va inson kapitalining uyg'un rivojlanishi mamlakatlarning global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, UNCTAD hisobotlarida elektron tijorat va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalari xalqaro savdo samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi. Bundan tashqari, European Commission tomonidan ilgari surilgan "Twin Transition" konsepsiyasi raqamli va yashil transformatsiyaning o'zaro integratsiyasi barqaror iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modeli sifatida e'tirof etilishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirishda raqamli iqtisodiyot va milliy raqobatbardoshlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks hamda tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy usullar va tahlil bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, grafik taqqoslash va kontent-tahlil usullaridan samarali foydalanildi. Xususan, raqamli iqtisodiyotning milliy raqobatbardoshlikka ta'siri xalqaro indekslar hamda internet ma'lumotlar bazalari asosida kompleks ravishda baholandi. Bunda turli mamlakatlarning raqamli rivojlanish ko'rsatkichlari, innovatsion salohiyati va iqtisodiy samaradorlik darajalari o'zaro taqqoslandi.

Shuningdek, ilmiy maqolalar, strategik dasturlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda analitik hisobotlarni chuqur o'rganish asosida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yuzasidan nazariy va amaliy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni joriy etishning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi o'zni, innovatsion rivojlanish jarayonlariga ta'siri hamda global iqtisodiy integratsiyadagi ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot bugungi kunda jahon miqyosida, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy transformatsiyani harakatlantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini operatsion samaradorlikni oshirish hamda bozor imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida raqamli platformalarni faol joriy etishga undamoqda. Xususan, kichik va o'rta biznes (KOB) subyektlari uchun ijtimoiy tarmoqlar, fintex (fintech) xizmatlari va elektron tijorat (e-commerce) platformalarini strategik integratsiya qilish zamonaviy bozor raqobatida barqaror faoliyat yuritishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar logistika va inventarizatsiya jarayonlarini raqamli kuzatuv tizimlari — delivery monitoring va stock management texnologiyalari orqali optimallashtirish hisobiga boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, raqamli to'lov tizimlari hamda biznes jarayonlarini avtomatlashtirish mexanizmlari tranzaksiyon xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada bo'shagan moliyaviy resurslar mahsulot ishlab chiqish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va strategik rivojlanish yo'nalishlariga qayta yo'naltirilmoqda.

Bundan tashqari, fintex xizmatlari an'anaviy moliya institutlariga xos murakkab ma'muriy tartib-taomillar va yuqori garov talablarisiz moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirmoqda. Elektron tijorat hamda katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish esa korxonalarning bozor qamrovini xalqaro darajaga olib chiqish bilan bir qatorda, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish asosida innovatsion mahsulotlar va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishga imkon yaratmoqda. Shu jihatdan, raqamli transformatsiya milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini mustahkamlash, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy raqobatbardoshlik darajasini oshirishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda (1-jadval).



1-jadval. Raqamli raqobatbardoshlikning global ko'rsatkichlari (namuna: O'rta Osiyo va rivojlangan davlatlar qiyosida)²

Davlatlar	Network Readiness Index (NRI) reytingi	Aholining internetdan foydalanish darajasi (%)
Singapur	2–10	98 %
Estoniya	20–25	99 %
Qozog'iston	60–65	92 %
O'zbekiston	85–95	83 %

Raqamli transformatsiya jarayoni yangi imkoniyatlarni yaratishi bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot va, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bir qator dolzarb muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammolar, avvalo, milliy raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tizimli to'siqlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, raqamli savodxonlik darajasining bosqichma-bosqich oshib borayotgani tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron tijorat platformalari, onlayn marketing vositalari hamda raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi tadbirkorlarga yangi bozorlarni egallash, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkonini bermoqda. Bu esa biznes subyektlarining innovatsion faolligi hamda bozor raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish, aloqa xizmatlari sifatini yaxshilash hamda zamonaviy texnologik xizmatlarni joriy etish raqamli imkoniyatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirmoqda. Natijada hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya kuchayib, raqamli iqtisodiyotning ijobiy samaralari yanada kengroq namoyon bo'lmoqda.

Uchinchidan, huquqiy va axborot xavfsizligi sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tadbirkorlarning raqamli muhitga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish, onlayn xizmatlar xavfsizligini oshirish hamda shaxsiy va tijorat ma'lumotlarini himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy raqobatbardoshlikni yanada oshirish uchun kompleks va uzoq muddatli strategik yondashuvni izchil davom ettirish muhim hisoblanadi. Eng avvalo, barqaror va inklyuziv raqamli ekotizimni shakllantirish orqali barcha hududlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, keng polosali internet infratuzilmasini rivojlantirish, internet xizmatlari sifati va ommabopligini oshirish hamda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, aholi va tadbirkorlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, kiberxavfsizlik bo'yicha zamonaviy va ishonchli mexanizmlarni joriy etish hamda ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xususiy sektor va ta'lim muassasalari hamkorligida tadbirkorlar uchun maxsus raqamli savodxonlik treninglarini (digital literacy training) tashkil etish ularning zamonaviy iqtisodiy jarayonlardagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda raqamli transformatsiyani faol amalga oshirayotgan korxonalarni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish iqtisodiy samaradorlik va investitsion jozibadorlikni yanada kuchaytiradi. Faqatgina ana shunday tizimli, muvofiqlashtirilgan va uzoq muddatli choralar orqali raqamli transformatsiyaning ijobiy samaralaridan to'liq foydalanish, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini mustahkamlash hamda uning global raqobatbardoshligini barqaror oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy raqobatbardoshlikni oshirish ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlarini ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish, ya'ni "egizak o'tish" (Twin Transition) modelini amaliyotga joriy etish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, raqamli infratuzilmani kompleks rivojlantirish zarur. Xususan, mamlakatning barcha hududlarida, ayniqsa qishloq va chekka hududlarda keng polosali internet tarmog'ini kengaytirish, uning sifati va barqarorligini oshirish orqali raqamli tafovutni qisqartirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur choralar nafaqat iqtisodiy faollikni oshirishga, balki hududlararo ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

² Muallif tomonidan yaratilgan.



Ikkinchidan, inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Aholi, ayniqsa yoshlar va tadbirkorlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish, zamonaviy IT-ko'nikmalarni shakllantirish hamda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish orqali innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar bazasini mustahkamlash mumkin. Shu maqsadda ta'lim muassasalari va xususiy sektor hamkorligida amaliy treninglar, startap inkubatsiya dasturlari va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Jumladan, sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data) va narsalar interneti (IoT) kabi ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalariga keng joriy etishni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu bilan birga, "yashil texnologiyalar" va energiya tejamkor yechimlardan foydalanishni rag'batlantirish milliy iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, institutsional muhitni takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot talablariga moslashgan, sodda va shaffof huquqiy bazani shakllantirish, kibernetika xavfsizlik tizimini kuchaytirish hamda ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining raqamli muhitga bo'lgan ishonchini oshirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi choralarni joriy etish ularning innovatsion faolligini yanada kuchaytiradi.

Beshinchidan, eksport salohiyatini oshirish maqsadida raqamli platformalar va elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni global qiymat zanjirlariga integratsiyalash, ularning mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqishda raqamli marketing, logistika va elektron savdo tizimlaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini sezilarli darajada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlik tamoyillarining uzviy uyg'unligiga tayanadi. Faqat texnologik rivojlanish bilangina cheklanib qolmasdan, inson kapitali, innovatsion infratuzilma va institutsional muhitni kompleks ravishda takomillashtirish orqali O'zbekiston global iqtisodiy makonda o'z mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin. Taklif etilgan yondashuv va mexanizmlar mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash bilan birga, uni mintaqaviy va xalqaro darajada yuqori raqobatbardosh iqtisodiyotga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5030957>.
2. World Bank. (2023). Digital Progress and Trends Report – 2023. Washington, DC: World Bank Group.
3. European Commission. (2022). 2022 Strategic Foresight Report: Twinning the Green and Digital Transitions in the New Geopolitical Context.
4. UNCTAD. (2021). Digital Economy Report – 2021: Cross-border Data Flows and Development: For Whom the Data Flows.
5. Portulans Institute. (2023). The Network Readiness Index – 2023: Trusting Network-First Models for a Greener Future. Washington, DC.
6. Klaus Schwab. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
7. International Telecommunication Union (ITU). (2023). Measuring Digital Development: Facts and Figures – 2023. Geneva: ITU Publications.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar.
9. World Economic Forum. (2020). The Global Competitiveness Report – 2020: How Countries are Performing on the Road to Recovery.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
